



XALQ DEPUTATLARI QASHQADARYO VILOYATI KENGASHINING Q A R O R I

2024-yil 2-dekabr

VII-3-018-4-0-K/24

Qashqadaryo viloyati

Qashqadaryo viloyati “Issiqlik manbai” davlat unitar korxonasining issiqlikenergiyasi narxlari (tariflari)ni tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 886-sonli Qonunining 13-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 15-sentabrda “Yoqilg‘i-energiya sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 475-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 17-yanvarda 03/1-3480-sonli topshirig‘i hamda viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 12-noyabrda 01-20-10/05-38/2947-sonli, Raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi viloyat hududiy boshqarmasining 2024-yil 15-oktabrda 01/02-4021-sonli, viloyat “Issiqlik manbai” davlat unitar korxonasining 2024-yil 21-noyabrda 72-sonli xatlarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24- moddalariga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. Viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 12-noyabrda 01-20-10/05-38/2947-sonli, raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi viloyat hududiy boshqarmasining 2024-yil 15-oktabrda 01/02-4021-sonli, viloyat “Issiqlik manbai” davlat unitar korxonasining 2024-yil 21-noyabrda 72-sonli xatlari ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Qashqadaryo viloyatida issiqlik energiyasi xizmatlari uchun viloyat “Issiqlik manbai” davlat unitar korxonasi tomonidan taklif etilayotgan (QQS siz) narxlar (tariflar) **ilovaga** muvofiq ma‘qullansin.

3. Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2024-yil 30-mayda VI-74-67-4-0-K/24-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

4. Ushbu qaror “Qashqadaryo” gazetasida e‘lon qilinsin hamda viloyat hokimligining qashqadaryo.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Tasdiqlangan tariflar ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilingandan keyin o‘n besh kun o‘tgach kuchga kirishi belgilansin.

6. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish va ijrosini ta'minlash xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budget, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiya raisi O.Ravshanov hamda viloyat hokimining o'rinbosari M.Azizov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



XUSHMURODOVA
ISMIGUL
BERDIMURODOVNA

Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati
Kengashining
2024-yil 2-dekabrdagi
VII-3-018-4-0-K/24 -son qaroriga
1-ilova

**Qashqadaryo viloyati “Issiqlik manbai” DUK tomonidan taklif etilgan issiqlik energiyasi
xizmati uchun (QQS siz) narxlar (tariflar)
JADVALI**

soʻmda

Amalda qoʻllanillayotgan tarif				Yangi tarif darajasi			
Aholi uchun markaziy isitish (1m ² uchun 1 oyga)	Aholi uchun issiq suv taʼminoti (1 kishi uchun 1 oyga)	Aholi uchun tarif (1Gkal uchun)	Yagona ulgurji tarif (1 Gkal uchun)	Aholi uchun markaziy isitish (1m ² uchun 1 oyga)	Aholi uchun issiq suv taʼminoti (1kishi uchun 1 oyga)	Aholi uchun tarif (1Gkal uchun)	Yagona ulgurji tarif (1Gkal uchun)
1204	15155	69575	132400	1385	17427	80011	132400